


Buxoro viloyatida 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlari

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlar hajmi 3291,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish surati 117,5 foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan foizda



Yirik korxonalar



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


Korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Yirik korxonalar - 422,6 mlrd. so'm

kichik korxonalar va mikrofirmalar - 1710,6 mlrd. so'm

norasmiy sektor bo'yicha 1158,7 mlrd. so'm

Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'ati, foizda




Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3291,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 117,5 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 422,6 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1710,6 mlrd. so'mni hamda norasmiy sektor bo'yicha 1158,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 125,8 % ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 111,4 % ni tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,5 foizga kamaygan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 3,5 foizga oshgan, norasmiy sektor ulushi 2,0 foizga kamaygan.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning
turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi**
jamiga nisbatan foizda




Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti 2019 yil yanvar-sentyabr

(jamiga nisbatan foizda)



2018 yil yanvar-sentyabr

(jamiga nisbatan foizda)



Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 58,9 foizi yoki 1939,9 mlrd. so'm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kentgaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o'tgan yilning mos davrida 59,1 foiz yoki 1569,0 mlrd. so'm), 41,1 foizi yoki 1352,0 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davrida 40,9 foizi yoki 1087,6 mlrd. so'm) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'ektlarini (maktablar, kollejlarda, sport hamda sog'liqni saqlash ob'ektlari va boshqalar) qurishda, namunalik hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo'ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining hajmi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va ishootlarni qurilishiga 2275,6 mlrd. so'm, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 69,1 foizni, fuqarolik ob'ektlarini qurilishiga 523,7 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 15,9 foizni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 492,6 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan ulushi 15,0 foizni tashkil qildi.

mlrd. so'mda

	Amaldagi narxlarda	Umumiy hajmga nisbatan foizda	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
			Bino va ishootlarni qurilishi	Fuqarolik ob'ektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish
Viloyat bo'yicha jami	3291,9	100,0	2275,6	523,7	492,6
Davlat mulki	194,9	5,9	1,4	169,2	24,3
Nodavlat mulki	3097,0	94,1	2274,2	354,5	468,3


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish

ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 foiz punktga oshdi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 foiz punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 foiz punktga ko'paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmiga nisbatan ulushi, foizda



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalarini tomonidan 3097,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 117,2 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 94,1 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foiz punktga kamaygan.

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 194,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan, oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati 122,5 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 5,9 foizni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foiz punktga koʻpaygan.


	2019 yil yanvar- sentyabr , mlrd, soʻm	Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati, foizda	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda
Jami mulkchilik shakli boʻyicha	3291,9	117,5	100,0
Davlat mulki	194,9	122,5	5,9
Nodavlat mulki	3097,0	117,2	94,1

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

Viloyatda qurilish ishlari hajmida eng yuqori oʻrinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 737,9 mlrd. soʻm, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 128,1 foizni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Gʻijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 319,6 mlrd. soʻmni, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 137,4 foizni tashkil qildi. Kogon tumanida esa 300,4 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 121,8 foizni tashkil qildi. *mlrd, soʻm*

	2019 yil yanvar-sentyabr, mlrd, so‘m	2018 yil yanvar-sentyabr, mlrd, so‘m	O‘shish sur‘ati, foizda
Jami	3291,9	2656,6	117,5
Buxoro sh	737,9	545,9	128,1
Kogon sh	89,5	83,3	101,8
Olot	234,2	189,0	117,5
Buxoro	264,7	210,9	119,0
Vobkent	123,5	114,4	102,3
G‘ijduvon	319,6	220,7	137,4
Kogon	300,4	233,9	121,8
Qorako‘l	154,0	135,9	107,4
Qorovulbozor	227,7	212,7	101,4
Peshko‘	177,2	154,7	108,6
Romitan	254,7	213,4	113,2
Jondor	164,3	142,6	109,3
Shofirkon	244,2	199,2	116,2

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlarining ulushi, foizda



Qurilish ishlari umumiy hajmida 22,4 foiz ulush bilan Buxoro shahri yetakchilikni egalladi. Keyingi pog'onani 9,7 foiz ulush bilan G'ijduvon tumani egalladi. Uchinchi o'rinni 9,1 foiz ulush bilan Kogon tumani egalladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

A. Kilichev

Aloqa telefoni:

223-81-99, 0(371)230-83-10